

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoniga 19-23 iyun kunlari 299 nafar fuqarodan murojaatlar kelib tushdi

Murojaatlar bo‘limi xodimlari 19-23 iyun kunlari **Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya, akusherlik va ginekologiya, dermatovenerologiya va kosmetologiya, travmatologiya va ortopediya, ftiziatriya va pulmonologiya, Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasi, urologiya, onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida** imtiyozli yo‘llanma bilan davolanib chiqqan **213 nafar** bemorlar bilan tibbiy yordamni baholash hamda tibbiy yordam sifati, hajmi yuzasidan telemuloqotlar o‘tkazdilar.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefon (**99 353-93-54, 94-353-93-54**)lariga **86 ta** fuqarolardan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan “**sms**” xabarnoma, jamg‘arma faoliyati yuzasidan hamda fuqarolarning **og‘zaki murojaatlari** bo‘ldi.

Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi xodimlari hafta davomida umumiy **299 nafar** fuqarolar bilan telemuloqatlar o‘tkazdilar.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga hafta mobaynida imtiyozga ega fuqarolardan ishonch telefonlariga **6(7,0%)ta og‘zaki e’tirozli murojaatlar** kelib tushdi.

Shulardan:

Respublika ixtisoslashtirilgan **terapiya va tibbiy reabilitatsiya** ilmiy-amaliy tibbiyot markazida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **to‘rt nafar bemorlar shifokorlar qarovidan, davolanish sifatidan va shifoxona sharoitidan noroziligini bildirib** Jamg‘armaning ishonch telefoniga o‘zlarining **e’tirozli og‘zaki murojaatlarini** qildilar.

Ushbu murojaatlar yuzasidan shifoxona mas’ullariga telefon orqali murojaatchilarning ma’lumotlari berildi, bemorlar e’tirozlar o‘rinliligi yuzasidan tushuntirildi, **og‘zaki murojaatlar o‘z vaqtida bartaraf qilindi.**

Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida yashovchi **imtiyozga ega fuqarolardan** Jamg‘arma ishonch telefoniga kelib tushgan og‘zaki murojaatlar xududiy bosh mutaxassislarga ma’lumotlari berildi, **og‘zaki murojaatlar ijobiyl hal qilindi.**

**Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi
Matbuot xizmati**